



# TOSHKENT SHAHRINING SANOAT ISHLAB CHIQRISHI

2023- YIL YANVAR - MAY  
(DASTLABKI MA'LUMOT)




Sanoat statistikasi  
boshqarmasi  
Tel.: 71-202-80-46

## Toshkent shahrining sanoat ishlab chiqarishi

(2023- yil yanvar - may oylarida)


Dastlabki ma'lumotlar bo'yicha 2023-yilning yanvar - may oylarida shahar korxonalari tomonidan 42,2 trln. so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lib, 2023- yilning yanvar - may oylariga nisbatan sanoat ishlab chiqarishining fizik hajm indeksi\* 104,6 % ni tashkil etdi.

Sanoat ishlab chiqarishi tarkibida eng katta ulush ishlab chiqaradigan sanoat hissasiga to'g'ri kelib, uning jami sanoat ishlab chiqarishidagi ulushi (80,9 %)ni hamda ishlab chiqarish hajmi 34,1 trln. so'mni tashkil etdi.




*B – Togʻ-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash, C – Ishlab chiqaradigan sanoat D – Elektr, gaz, bugʻ bilan taʼminlash va havoni konditsiyalash, E – Suv bilan taʼminlash; kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yigʻish va utilizatsiya qilish.*

### **Asosiy iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat ishlab chiqarishi, FHI\* % da**




Jami sanoat ishlab chiqarishi fizik hajmi o'sishining asosiy omili bo'lib, ishlab chiqaradigan (qayta ishlash) sanoatning – 7,6 % ga, suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilishda - 13,7 % o'sishi kuzatildi. Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalashning - 30,0 % ga, tog'kon sanoati va ochiq konlarda ishlash – 0,1 % ga pasayish kuzatildi.

\*Sanoat ishlab chiqarishining fizik hajm indeksi ishlab chiqarilgan mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) hajmining taqqoslanadigan davrlardagi o'zgarishini tavsiflovchi nisbiy ko'rsatkichdir.




Togʻ-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash korxonalari tomonidan 2023- yilning yanvar - may oylarida ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 6,3 trln. soʻmni yoki jami sanoat mahsulotlari hajmining 14,9 % ini tashkil etdi.

**Jami sanoat ishlab chiqarishi hajmidagi ulushi,  
(yanvar - may oylarida, % da)**



**Togʻ-kon sanoati va ochiq konlarni ishlashda yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish**

Oʻtgan yilning mos davriga nisbatan, % da




**Togʻ-kon sanoati va ochiq konlarni ishlashda yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish**

Sanoat mahsulotlari	2022- yil yanvar - may	2023- yil yanvar - may	Farqi +/-
Neft, ming t.	269,7	283,6	13,9
Tabiiy gaz, mln. kub.m.	15 198,7	13 847,4	-1 351,3
Gaz kondensati, ming t.	321,0	282,5	-38,5
Chaqiq tosh ming t.	48,6	73,3	24,6


Shagʻal t.

**Ishlab chiqaradigan sanoat**



2023- yilning yanvar-may oylarida ishlab chiqaradigan sanoat korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 34,1 trln. soʻmni yoki jami sanoat mahsulotlarining 80,9 % ini tashkil etdi.

**Jami sanoat ishlab chiqarishi hajmidagi ulushi, (yanvar - may oylarida, % da)**



O'tgan yilning mos davri bilan solishtirganda ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida yuqori texnologiyali tarmoqning ulushi 4,2 % ni (2022- yilning yanvar - may oylarida – 5,6 %), o'rta-yuqori texnologiyali – 26,3 % (26,5 %), o'rta-quyi texnologiyali – 29,5 % (30,7 %) va quyi texnologiyalisi – 40,1 % (37,2%)ni tashkil etdi.




Jami ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida mashina va asbob- uskunalari ishlab chiqarish, ta'mirlash va o'rnatish, avtotransport vositalari, yarim tirkamalar va boshqa tayyor buyumlarni ishlab chiqarish sohasining ulushi – 29,8 % (2022- yilning yanvar-may oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 110,0 %), metallurgiya sanoatining ulushi – 16,2 % (2022- yilning yanvar-may oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 113,9 %), to'qimachilik, kiyim, teri mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi – 7,7 % (2022- yilning yanvar-may oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 100,1 %), oziq-ovqat, ichimliklar va tamaki mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi – 24,7 % (2022- yilning yanvar-may oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 104,2 %), kimyo mahsulotlari, rezina va plastmassa buyumlarini ishlab chiqarishning ulushi – 8,3 % (2022- yilning yanvar-may oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 130,0 %) ni tashkil etdi.

## Ishlab chiqaradigan sanoatda ayrim turdagi mahsulotlarning o'sish sur'ati


2023- yilning yanvar - may oylari davomida ishlab chiqaradigan sanoatda 1923,1 tonna makaron va shunga o'xshash un mahsulotlari (48,2 % ga oshgan), 13,6 ming tonna mis sim (32,1 %), 524,7 tonna osh tuzi (74,9 % ga oshgan) hamda 8,7 ming tonna mashina yoki qo'lda to'qilgan trikotaj matolari (42,9 %) ishlab chiqarilganligi kuzatildi.

### O'tgan yilning mos davriga nisbatan, % da


O'simlik yog'i (tozalangan)	Margarin va yormalar	Yumshoq bug'doy va spelta uni
-----------------------------	----------------------	-------------------------------



Pivo	Aroq	Uzum vinosi
------	------	-------------



Tamaki mahsulotlari	Paxta kalavasi
---------------------	----------------




**Ishlab chiqaradigan sanoatda yirik sanoat korxonalari  
tomonidan ayrim turdagi mahsulotlarni ishlab chiqarish**

<b>Sanoat mahsulotlari</b>	<b>2022- yil yanvar - may</b>	<b>2023- yil yanvar - may</b>	<b>Farqi +/-</b>
<b>Yumshoq bug‘doy va spelta uni, ming tonna.</b>	9,2	53,8	44,6
<b>Paxta kalavasi, ming tonna.</b>	15,2	14,3	-1,0
<b>Margarin va yormalar tonna.</b>	2 269,0	1 482,4	-786,6
<b>Pivo – mln litr</b>	31,7	32,9	1,3
<b>Traktorlar - dona</b>	73,0	0,0	-73,0
<b>Sovutgich va muzlatgichlar - ming dona</b>	238,5	290,9	52,4
<b>Akril va vinil polimerlari asosidagi bo‘yoqlar va laklar, t.</b>	6 406,0	6 409,0	3,0
<b>Tamaki mahsulotlari, mln. dona</b>	848,6	529,2	-319,4

**Metallurgiya sanoati**  
( yanvar - may )



**FHI**  
**% da**



Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2022-yilning yanvar-may oylarida metallurgiya sanoati ulushi 10,4 % ni tashkil etib, uning fizik hajm indeksi 24,2 ga ko'paygan bo'lsa, 2023 yilning yanvar-may oylari yakunlariga ko'ra, metallurgiya sanoatining ulushi 16,2 % gacha ko'tarilib, fizik hajm indeksi esa, 113,9 % va ishlab chiqarish hajmi 5522,9 mlrd. so'mni tashkil etdi.


### **Boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarish**

*(yanvar - may oylarida)*

Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2022- yilning yanvar-may oylarida boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarishning ulushi 4,6 % ni, uning fizik hajm indeksi esa 18,5 % ga ko'paygan bo'lsa, 2023- yilning yanvar-may oylari yakunlariga ko'ra, boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarishning ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 2,9 % ni tashkil etdi, o'tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi esa 73,6 % ga kamaydi va ishlab chiqarish hajmi 997,0 mlrd. so'mni tashkil etdi.



**FHI**  
**% da**



### **Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish sanoati**


*(yanvar - may oylarida)*



Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2022- yilning yanvar-may oylarida oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 12,8 % ni, uning fizik hajm indeksi esa 131,3 % ni tashkil etgan bo'lsa, 2023- yilning yanvar-may oylari yakunlariga ko'ra, oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 13,5 %, o'tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi esa 0,1 % ga kamaydi va ishlab chiqarish hajmi 4611,0 mlrd. so'mni tashkil etdi.




**FHI**  
**% da**



### Ichimliklar ishlab chiqarish sanoati

(yanvar - may oylarida)

**FHI**  
**% da**




Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2022- yilning yanvar-may oylarida ichimlik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 9,0 % ni, uning fizik hajm indeksi esa 19,7 % ga oshgan bo'lsa, 2023- yilning yanvar - may oylari yakunlariga ko'ra, ichimlik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 10,9 % ni tashkil etdi, o'tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi esa 109,5 % ni va ishlab chiqarish hajmi 3712,4 mlrd. so'mni tashkil etdi.

### To'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish sanoati

(yanvar - may oylarida)


Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2022- yilning yanvar-may oylarida to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 7,1 % ni tashkil etgan bo'lsa, uning fizik hajm indeksi 118,7 % ni tashkil etgan.

Shuningdek, 2023- yilning yanvar - may oylarida to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 5,8 % ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi 4,2 % ga kamaygan bo'lsa, ishlab chiqarish hajmi 1978,3 mlrd. so'mni tashkil etdi.



### Kiyim ishlab chiqarish sanoati

(yanvar - may oylarida)



2022- yilning yanvar-may oylari yakunlariga ko'ra, kiyim ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 1,4 % ni, fizik hajm indeksi esa 95,0 % ni tashkil etgan bo'lsa, 2023- yilning yanvar-may oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 7,1 % ni, fizik hajm indeksi 113,4 % ni, ishlab chiqarish hajmi esa 598,0 mlrd. so'mni tashkil etdi.

### Kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish


(yanvar - may oylarida)

2022- yilning yanvar - may oylari yakunlariga ko'ra kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 3,1 % ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi esa 105,2 % ni tashkil etgan.

Shuningdek, 2023- yilning yanvar-may oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 4,2 % ni, fizik hajm indeksi 55,0 % ga ko'paydi, ishlab chiqarish hajmi esa 1433,4 mlrd. so'mni tashkil etdi.




**FHI**  
**% da**



### Koks va neftni qayta ishlash mahsulotlari ishlab chiqarish

(yanvar - may oylarida)




2022 - yilning yanvar - may oylari yakunlariga ko'ra, koks va neftni qayta ishlash mahsulotlari ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 0,3 % ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi esa 44,2 % ni tashkil etgan.

Shuningdek, 2023- yilning yanvar-may oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 0,2 % ni, fizik hajm indeksi 31,8 % kamaygan bo'lib, ishlab chiqarish hajmi 78,8 mlrd. so'mni tashkil etdi.

### Avtotransport vositalari, treylerlar va yarim tirkamalar ishlab chiqarish

(yanvar - may oylarida)

**FHI**  
% da



2022- yilning yanvar - may oylari yakunlariga ko'ra, avtotransport vositalari, treylerlar va yarim tirkamalar ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 4,9 % ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi esa 224,7 % ni tashkil etdi.

Shuningdek, 2023- yilning yanvar - may oyilarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 29,8 % ni tashkil etdi, fizik hajm indeksi 110,0 % ni, hamda ishlab chiqarish hajmi 10181,8 mlrd. so'mni tashkil etdi.

### Rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish


(yanvar - may oylarida)

2022- yilning yanvar - may oylari yakunlariga ko'ra, rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 4,9 % ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi esa 127,7 % ni tashkil etdi.

Shuningdek, 2023- yilning yanvar - may oyida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 4,1 % ni, fizik hajm indeksi 102,2 % ni hamda ishlab chiqarish hajmi 1410,0 mlrd. so'mni tashkil etdi.




**FHI**  
% da



## Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash

yanvar - may oylarida




Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash korxonalarini tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 1,4 trln. so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 3,3 % ini) tashkil etdi.

2023- yilning yanvar - may oylarida, sanoatning mazkur tarmog'ida elektr energiyani ishlab chiqarish, uzatish va taqsimlash, bug' bilan ta'minlash tizimlari va havoni konditsiyalashning o'tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi 30,8 % ga kamayganligi kuzatildi.

### **Jami sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi,**

(yanvar - may oylarida, % da)



### Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash sohasida yirik sanoat korxonalarini tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

Sanoat mahsulotlari	2022- yil yanvar-may	2023- yil yanvar-may	Farqi +/-
Elektroenergiya, mln.kVt.s	173,5	1378,0	1 204,5

**Issiqlik energiyasi,**  
*ming gkal*

6 328,4

5 476,7

-851,7

**Elektroenergiya uzatish  
bo'yicha xizmatlar, mln so'm.**


327,7

389,0

61,3

**Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi,  
chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish**

*yanvar - may oylarida*



Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 0,4 trln.so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 0,9 % ini) tashkil etdi.

**Jami sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi,**

*(yanvar –mart oylarida, % da)*




Sanoat mahsulotlari	2022- yil yanvar-may	2023- yil yanvar-may	Farqi +/-
Oqova suvlarni yo'qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo'yicha xizmatlar, mlrd.so'm	63,9	74,1	10,2
(Xavfli bo'lgan chiqindilar toksik kimyoviy, tonna)	115,5	140,5	25,0

Tabiiy suv; suvni qayta ishlash va ta'minlash, mlrd. so'm	107,5	140,0	32,4
---	-------	-------	------

O'tgan yilning mos davriga nisbatan xavfli bo'lgan chiqindilar (toksik) kimyoviy bo'yicha xizmatlar 21,7 % ga ko'paydi, tabiiy suv; suvni qayta ishlash va ta'minlash 30,1 % ga, oqava suvlarni yo'qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo'yicha xizmatlar 16,0 % ga o'sish kuzatildi.

### Iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish

Tayyor mahsulot turlarini kengaytirish va ishlab chiqarilishini qo'llab-quvvatlash bo'yicha amalga oshirib kelinayotgan chora-tadbirlar natijasida, iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 12,3 trln.so'mni tashkil etdi va 2022- yilning mos davriga nisbatan 104,4 % ni, uning jami sanoatdagi ulushi 29,0 % ni tashkil etdi.



Hisobot davrida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan 13,6 trln. soʻmlik sanoat mahsuloti ishlab chiqarilib, uning umumiy ishlab chiqarish hajmidagi ulushi 32,3 % ni tashkil etdi.

**Toshkent shahrida faoliyat koʻrsatayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonolari**

*(2023- yil 1 iyun holatiga koʻra)*

Bugungi kunda Toshkent shahrida 11,4 mingta sanoat korxonolari faoliyat koʻrsatmoqda.

2023- yilning yanvar-may oylarida Toshkent shahrida 649 ta yangi sanoat korxonolari tashkil etildi.

**Sanoat statistikasi boʻlimi**

*Tel.: (71) 203-88-16*